



MONOPOLIYA VA RAQOBAT

Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti
talabalari

Toshtemirova Muxlisa Davronbek qizi

Tel-(998) 94 202 06 03

Email-muxlisatoshtemirova2@gmail.com

Qodirova Ozoda Rahmiddin qizi

Tel- (998) 91 077 00 57

Email-ozodaraxmiddinovna@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada bugungi kundagi dolzarb masalalardan bo'lgan raqobat va monopoliya haqida so'z boradi. Sof raqobat qanday bo'lishi kerak? Raqobat rivojlansa qanday natijalar bo'ladi? degan savollarga javob topish mumkin. Raqobat qachonki samarali rivojlanadi shundan so'ng monopoliyani bartaraf etish mumkin.

Kalit so'zlar: Raqobatbardosh, raqobat, demping, monopoliya, antimonopol, yirik korxonalar, sof raqobat.

Kirish:

Monopoliya (yun. mono — tanho, poleo — sotaman) — iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik; bozorni tashkil etish shakli. Bunday bozorlarda yagona sotuvchi o'z tovari bilan fa-oliyat ko'rsatadi, boshqa tarmoqlarda bunday tovarning o'rinbosari bo'lmaydi. M. ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining ozchilik korxonalar, sohibkor shaxslar yoki davlat qo'lida to'planishi natijasida paydo bo'ladi. M. ko'rinishlari qadimdan mavjud. Noyob mahsulot yetishtiriladigan yerlar, konlar, suv havzalari, o'rmonlar va boshqa tabiiy manbalar ozchilik qo'lida to'planib, egalariga monopol mavqe bergan, ular ma'lum mahsulotni bozorgatanho yetkazib beruvchilarga aylanib, u yerda hukmron bo'lganlar. M. o'z tabiatiga ko'ra ishlab chiqarish da turg'unlik paydo qiladi, chunki monopol mavqega tayanib, sarflarni kamaytirmay foyda ko'rish, raqobatning yo'qligi yoki zaifligidan foydalanib bozorga o'z izmini o'tkazish mumkin.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi. Monopoliyaning 6 turi mavjud bo'lib ular:

1. Tabiiy monopoliya



2. Legal monopoliya
3. Sun'iy monopoliya
4. Oligopoliya
5. Monopsoniya
6. Sof monopoliya

Tabiiy monopoliya - bozorda muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo'lgan talabni qondirishda raqobatli sharoitlarni yaratish texnologik xususiyatlarga ko'ra mumkin bo'lmaydigan yoki iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lmaydigan holat. Tabiiy monopoliyalar faoliyati ularning mamlakat iqtisodiyotida egallagan ahamiyatini hisobga olgan holda davlat tomonidan tartibga solinadi.

Legal (qonuniy) monopoliya - bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat.

Sun'iy monopoliya

O'sib borayotgan sun'iy monopoliya ishlab chiqarish bazasi, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonining yuqori samaradorligi bilan tavsiflanadi. Buning sababi shundaki, raqobatni engib, eng ilg'or texnik baza bilan jihozlangan, operatsion xarajatlari past bo'lgan korxonalar bozorga kiradi.

Oligopoliya — tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi.

Monopsoniya — tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi.

Sof monopoliya - hech qanday raqobat mavjud bo'lmagan bozor tashkiloti. Agar sof monopoliya ta'rifiga murojaat qilsangiz, bunday bozor tashkiloti bilan mahsulotning yagona sotuvchisi, boshqa sanoat tarmoqlarida mavjud bo'lmagan analoglar yoki almashtirishlar mumkinligini bilib olishingiz mumkin.

Hozirgi kunda monopollashgan bozorlar ham o'z o'rnini egallab kelmoqda. O'zi aslida bu bozor qanday ekanligini hozir ko'rib chiqamiz. **Monopollashgan bozor** - ozchilik sotuvchilar va haridorlar hukmron, raqobat cheklangan yoki mavjud bo'lmagan bozor. Uning monopol raqobatli, oligopolistik, sof monopoliya bozori turlari bor. Monopol raqobatli bozorda firmalar ko'p bo'lganidan ulardan har birining tovarlar sotishdagi hissasi kichik bo'ladi, natijada ular bozorni cheklangan holda nazorat qiladilar. Ular yashirin kelishuv asosida o'zaro til biriktira olmaydilar, bu bilan mazkur bozor oligopolistik bozor (guruh monopoliyasi)dan farqlanadi. Monopollashgan bozorda firmalar mustaqil bo'lganidan o'z bozorida bir-biri bilan raqobatlashadi. Lekin raqobatning asosiy usuli narx bilan raqobatlashuv emas, balki sifat jihatidan bir-biridan farqlanuvchi mahsulot bilan bozorga chiqish hisoblanadi. Monopollashgan bozor yangi firmalarning kirib kelishi uchun ochiq hisoblanadi. Shu bois bu yerda raqobat cheklanmaydi, aksincha, kengayib turadi. Yangi firmalar kirib kelganda taklif ko'payib, narxlar tushib ketadi, natijada zarar ham



ko'tariladi. Zarar ko'rganlar bozordan chiqib ketishgach, narxlar oshadi, foyda maksimumlashadi. Bunday bozorda tovarlarni mukammallashtirish sotish hajmini oshirib, foyda miqdorini ko'paytiradi. Raqobatda modernizatsiyadan tashqari, reklama ham keng qo'llanadi. Monopollashgan bozorning monopollashuv darajasi amerikalik iqtisodchi A. P. Lerner (1903—1983) indeksi (L) bilan aniqlanadi: $P - W_m$ bu yerda R — narx; W_m — me'yoriy harajatlar. Indeks qiymati 0 dan 1 gacha o'zgaradi. Uning qiymati 1 ga kanchalik yaqin bo'lsa, firma monopoliyasi shu qadar kuchli hisoblanadi.

Raqobat haqida ham bayon etsak hozirgi kunda raqobat va uning bir necha turlari mavjud bu haqida batafsil ko'rib chiqamiz. **Raqobat** — mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxonalar) o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurash. Raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'yektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi R. o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer, ishchi kuchi) yuqori nd/shshrda sotish uchun amalga oshiriladi. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi R. bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yaqqol namoyon bo'ladi. Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz berib, tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga qaratiladi, ya'ni haridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq naflilikka ega bo'lishga harakat qiladi, arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi. Raqobatda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan harajatlarga ko'proq foyda olish, shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar, arzon xom ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun kurash boradi. Raqobat asosida ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi sifatida alohidalashuvi va mustaqil bo'lishi, manfaatlar to'qnashuvi yotadi. Chunki har bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulq egasining tovar ishlab chiqarish va boshqa barcha sohalaridagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Raqobat mavjud bo'lishining yana bir sharti — bu tovarpul munosabatlarining, ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimining bo'lishidir. Shu sababli Raqobabning asosiy sohasi bozor hisoblanadi. Yangi texnologiya joriy qilish, talabga javoban tovar turlarini tez o'zlashtirish, malakali ishchi kuchiga ega bo'lish va zamonaviy marketing xizmatidan foydalanish kabilar Raqobat kurashidan g'olib chiqish shartiga aylanadi. Monopoliya Raqobatga zid, chunki u tovar ishlab chiqaruvchiga tanho hukmronlikni ta'minlab, o'zaro bellashuv uchun sharoit qoldirmaydi. Raqobat kurash yo'lini tanlash jihatdan ham halol va g'irrom Raqobatga bo'linadi. Halol Raqobat bozordagi kurashda qabul qilingan, hammaga maqbul usullar bilan olib boriladi, bozor qoidalariga asoslanadi. G'irrom Raqobatda taqiqlangan va qoralangan usullar, ya'ni qalloblik, ko'zbo'yamachilik, so'zida turmaslik, aldash, iqtisodiy josuslik, qo'porovchilik va hatto jismoniy zo'ravonlik kabi jinoyatkorona usullar qo'llaniladi. Bozor iqtisodiyoti aslida faqat halol Raqobatni tan oladi. Raqobat iqtisodiyotni sog'lomlashtirib turadi. Raqobatdan jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish va uni nazorat qilishda davlat tomonidan qabul qilinadigan monopoliyaga qarshi qonunlar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar:

Hozirgi kunda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi huzuridagi Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining vakolatlarini kengaytirish davr talabidir. Ta'kidlash



joiz, Prezidentimiz raisligida o'tgan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining faoliyati tanqid qilindi. Qo'mitaning asosiy vazifasi bo'lgan tovar va moliya bozorlarida raqobat muhiti holatini tizimli tahlil qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustun mavqeini suiiste'mol qilishi, "kartel" kelishuvlari va til birlashtirish, insofsiz raqobatni aniqlash va ularga chek qo'yish, qonun hujjatlarining raqobatga ta'sirini baholash, davlat organlarining raqobatni cheklovchi qarorlar qabul qilishiga va shunday harakatlarni amalga oshirishiga yo'l qo'ymaslik borasida amalda faollik ko'rsatmay, faqatgina qog'ozlarda bajarilayotganligini hisobga olib, qo'mita faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir qaror loyihasi tayyorlash vazifasi qo'yildi. Bir so'z bilan aytganda ichki bozorda raqobat muhitini ta'minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatdoshligini oshirish mamlakatning barqaror rivojlanishida, fuqarolarning turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Porter, M.E. The Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. NY: Free Press, 2010/
2. Michael E. Porter. Competitive strategy; Techniques Analyzing Industries and Competitors. The free press. New York. London. Toronto. Sidney. Singapore. 2005.
3. Alimov R.O., Rasulev A.F., Qodirov A.M. "O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot". Monografiya. T.:CONSAUDITINFORM- NASNR, 2006. —438 b.
4. Porter M. "Konkurentnoe preimushestvo" 2-e izdanie. Moskva-2006. - 1200s
5. Porter M. "Konkurentnaya strategiya" 2-e izdanie. Moskva-2006. - 936s
6. Rubin Yu.B. Konkurentsia: Uporyadochennoe vzaimodeystvie v professionalbnom biznese. - M.: Market DS, 2010. -464 s.
7. Taranuxa Yu.V. «Konkurentsia i konkurentnaya strategiya». Uchebnoe posobie. M6 2008. - 270 s.
8. Filosofova T.G, Bjov V.A. Konkurentsia innovatsii. Ucheb. posob. - M.: YuNITI-DANA, 2008. - 295 s.
9. Chepurin M.N., Kiseleva Ye.A. «Kurs ekonomicheskoy teorii». Uchebnik. -M: «ASA», 2009.758 s.
10. Shodmonov SH.SH., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: IQTISOD-MOLIUA, 2010.-728 b.